

BIZNES SUB'EKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALARI

Shadibekova Dildor Abduraxmanovna I.f.n.,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

"Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasi professori

d.shadibekova@tsue.uz

ORCID 0000-0002-9890-1573

Anatatsiya:

Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari yoritib berilgan. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini o'rgangan olimlarning ilmiy-nazariy ishlari tahlil qilingan. Resurslarning samarali boshqarilmasligi, moliyaviy barqarorlikning zaifligi ko'rsatilgan., Shuningdek, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi barqaror va dinamik ishlashi, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy rivojlanish zarurligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy xavfsizlik, kichik biznes korxonalari, moliyaviy ta'minot, axborot xavfsizligi, xodimlar xavfsizligi, samarali boshqarish, raqobatbardoshlik, tashqi va ichki xavfsizlik, tijorat sirlari, moddiy, moliyaviy, intellektual xavfsizlikni ta'minlash.

Introduction

Kirish. Globallashuv va iqtisodiyotda raqobat kuchayib borayotgan sharoitda biznes sub'yektlari, jumladan, kichik biznes korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari tobora dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash butun xo'jalik yurituvchi sub'yektning xavf-xatarlarini salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning konseptual qoidasi asosan ikkita xavf va tahdid omillari hamda ularni biznes sub'yektlariga ta'sir etuvchi bir qancha omillarini o'z ichiga oladi. Bu qoidaga amal qilish esa xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishga hizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kichik biznes korxonalarini boshqarish doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash eng muhim vazifa hisoblanadi. Bir qator iqtisodchilar o'z tadqiqotlarida xavfsizlik masalalari, yo'qotishlarni minimallashtirish, mulk ustidan nazoratni, axborot va huquqiy xavfsizlikni va korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalarini ko'rib chiqdilar. Zamonaviy adabiyotlarda korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga ko'plab ta'riflar berilgan. Lekin korxona yirik yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar korxonaning iqtisodiy xavfsizligi - bu tahdidlarning oldini olish va xo'jalik yurituvchi sub'yektning barqarorligini ta'minlashda resurslardan eng samarali foydalanish, moliyaviy mablag'larni to'g'ri taqsimlashdan iborat deb aytish mumkin.

Rossiyalik olimlardan V.K.Senchagovning nuqtayi nazaridan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi omillar kombinatsiyasini o'z ichiga oladigan, faqat ichki holatga bog'liq bo'lmagan, korxonaning tashqi atrof-muhit ta'siri va korxonaning iqtisodiy tahdidlarga ko'radigan chora-tadbirlari majmuyi deb ta'rif beriladi [4]. Z.P.Rumyanseva, A.G.Porshnev, va

N.A.Salomatinning ta'kidlashicha, iqtisodiy xavfsizlik tashqi muhitdagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berishdan iborat bo'lib, bu korxona mavjud sharoitlarga moslashishini ta'minlaydi [5]. L.P.Goncharenko fikriga ko'ra, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tahdidlarning oldini olish va korxonaning barqaror ishlashini ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanish holati sifatida talqin etiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi A.H.Glyumov va Y.P.Kiselitsy ta'kidlashicha, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi sifat va miqdoriy iqtisodiy xavfsizlik darajasi ko'rsatkichlarining yig'indisi bilan tavsiflanadi, ularning asosiysi iqtisodiy xavfsizlik mezonlari bo'yicha korxona resurslaridan foydalanish holatini baholash orqali aniqlanadi [6]. Biroq ularda faqat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash yo'llari masalasi keng tadqiq qilinmagan. Gonchar va boshqa olimlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlikning moliyaviy jihatlarini ochib berilgan. Olimlardan LN. Dishlova va V.A. Lukyanenko korxonaning iqtisodiy xavfsizligini "u iqtisodiy va moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan holda o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan va kelajakda o'z mavqeini yaxshilash uchun doimiy ravishda rivojlana oladigan" davlat sifatida belgilaydi [7].

Kichik biznes korxonasi xavfsizligini ta'minlash - bu sub'yektning manfaatlarini amalga oshirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qulay ish sharoitlarini yaratishning uzluksiz jarayoni hisoblanadi. Kichik korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimini faoliyati turli tamoyillarga qat'i rioya qilishga asoslangan bo'lishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tahlil va sintez, iqtisodiy guruhlash, qiyosiy tahlil qilish va statistik tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi - faoliyatning maksimal barqarorligiga erishish, shuningdek, ob'yektiv va sub'yektiv omillardan (salbiy harakatlar, xavf omillari) qat'i nazar, biznes maqsadini amalga oshirish uchun o'sish istiqbollarini yaratish. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi barqaror ishlash va dinamik ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy rivojlanish uchun ulardan eng samarali foydalanishni kafolatlaydigan barcha turdagi resurslar va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishiladigan barqaror rivojlanishni (ya'ni, muvozanatli va uzluksiz) o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tizimi bir qator chora-tadbirlardan iborat:

- moliyaviy ta'minot - korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, to'lov qobiliyati va boshqa "pul masalalari";
- axborot xavfsizligi - o'z ma'lumotlarini himoya qilish. Zarur hollarda axborot-tahliliy ish, razvedka;
- texnik va texnologik xavfsizlik - korxonaning bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlovchi texnik baza va jihozlar, texnologiyalar va biznes jarayonlarini shakllantirish;
- huquqiy ta'minot - korxona faoliyatini huquqiy ta'minlash: davlat, hamkorlar, raqobatchilar, yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar;
- ijtimoiy ta'minot - korxona manfaatlarini rivojlantirish va amalga oshirishga, shuningdek xodimlarning moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan;
- xodimlar xavfsizligi - bular ish beruvchi o'z aktivlarini, resurslarini ishonib topshirgan va yuqorida ko'rsatilgan barcha choralami bajarish uchun vakolat bergan odamlardir.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tahdidlar va inqiroz hodisalarini bartaraf etish bilan chambarchas bog'liq. Korxonada iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin bo'lgan omillar korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillarga va korxona ishini tashkil etishga bog'liq bo'lgan ichki omillarga bo'linadi. Inqirozning paydo bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tashqi omilla- ko'proq strategik xususiyatga ega. Ularga inqirozning oldini olish uchun o'z vaqtida ogohlantirish va harakat qilish tizimi mukammal ishlamagan taqdirda korxonaning iqtisodiy inqiroziga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korxona iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qiladi. Ichki omillar, qoida tariqasida, o'zaro bog'liqdir. Ular korxona faoliyatidagi yo'qotishlarga, to'lovga qobilyatin; pasaytirishga, bozor bilan ishlashning qoniqarsiz tashkil etilishiga, raqobatbardoshlikning yo'qolishiga olib keladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga tor funksional e'tibor zarur, bu muammoning aniq usullari va yechimlarini chuqurroq va batafsil o'rganishga yordam beradi. Shunga asoslanib, iqtisodiy xavfsizlik nafaqat ichki holat, balki tashqi muhitning ta'siri bilan ham bog'liq bo'lgan murakkab tushunchadir, degan xulosaga kelish mumkin. Sanoat korxonasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash tizimi shablon bo'lishi mumkin emas, u har bir korxona uchun o'ziga xos bo'lishi kerak.

Korxona iqtisodiy xavfsizlikning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

markazlashtirilgan boshqaruv; fuqarolarning huquq va erkinliklari; qonuniylik; maxfiylik; tashqi va ichki xavfsizlik tahdidlariga rioya qilish; kuch va vositalardan kompleks foydalanish; xavfsizlikni ta'miniash uchun mustaqillik vajavobgarlik; ilg'or moddiy-texnik jihozlar; hokimiyat va boshqaruv organlari bilan muvofiqlashtirish hamda o'zaro hamkorlik.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

tijorat sirlari va maxfiy axborotni himoya qilish; kompyuter xavfsizligi; ichki xavfsizlik; binolar va inshootlarning xavfsizligi; jismoniy xavfsizlik; texnik xavfsizlik; aloqa xavfsizligi; tovarlar va shaxslarni tashish xavfsizligi; yong'in xavfsizligi; ekologik xavfsizlik; radiyasiyaviy va kimyoviy xavfsizlik; ijtimoiy-psixologik; xodimlar o'rtasida profilaktika ishlari va ularni iqtisodiy xavfsizlik masalalari bo'yicha o'qitish.

Kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, moddiy, moliyaviy, intellektual xavfsizlikni doimiy nazorat qilib turish lozim bo'lgan jarayondir. Optimal xavfsizlik tizimini yaratish uchun korxona xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqishi u asosida iqtisodiy xavfsizlik tizimini tashkil etishi kerak.

Kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash ushbu korxonalarni moliyaviy barqarorligiga bog'liq.

Moliyaviy barqarorlik statistikasi O'zbekistonda korxonalarning qarzдорligi 2023-yilda o'rtacha 7,5% ga oshgan. Bankrot bo'lgan korxonalar soni: 2022-yilda: 5 200 korxona. 2023-yilda: 5 600 korxona. 3. Innovatsiyalar darajasi Faoliyat yurituvchi korxonalarning atigi 15% i yangi texnologiyalarni tatbiq etgan. Xalqaro raqobatbardoshlik indeksiga ko'ra, O'zbekiston innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha 74-o'rinda. Iqtisodiy xavfsizlik tahdidlari bo'yicha statistika Raqobatbardoshlik pasayishi: Ichki bozorda faoliyat yurituvchi korxonalarning 40% i yuqori raqobat bosimini sezmoqda. Moliyaviy xatarlar: O'zbekistonda moliyaviy nazoratning sustligi sababli korxonalar o'rtacha 3,8% zarar ko'rmoqda. 5. Ishsizlik va kadrlar ta'minoti korxonalar uchun malakali ishchi kuchi tanqisligi: 2023-yilda: 18%. Malakali ishchilarni ushlab

qolish uchun korxonalar tomonidan ajratilgan mablag' o'rtacha 15% ga oshgan. Kiberxavfsizlik statistikasi korxonalarning faqat 20% i o'z ma'lumotlar bazasini himoyalash uchun maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanadi. Ma'lumotlar buzilishi holatlari 2023-yilda 12% ga oshgan. [8].

Kichik biznes sub'yektlarida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashda moliyaviy, xodimlar, texnik-texnologik, ishlab chiqarish va sotish omillarni ta'sirini hisoblash asosida barqaror, ijobiy, past va kritik darajalarga ajratish orqali ishlab chiqarish korxonasi iqtisodiy xavf va tahdidlardan himoya qilish yoki qarshi choralar ko'rish imkonini beradi.

Shunday qilib, kichik biznes sub'yektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash maqsadida asosiy e'tiborni avvalo mahsulot ishlab chiqarish va sotishning normal ritmini saqlashga, moddiy va moliyaviy zararlarni oldini olishga, raqamli transformatsiyani amalga oshirish, moliyaviy boshqaruvini kuchaytirish, eksport faoliyatini rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyani joriy qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'raqulova M. Kichik biznes korxonalari iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari <https://zenodo.org/records/15022608>
2. Akbarov A. Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlariva ularni baholash usullarining tahlili [https://cyberleninka.ru/article/n/metodologiya-obespecheniya-ekonomicheskoy-bezopasnosti](https://www.researchgate.net/publication/3.Байбобоева, Ф. (2020). Тadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy xavfsizligitushunchasining mohiyati va namoihi bulish shakllari. Ekonomika i innovatsionnye tekhnologii, 4. Senchagov V.K. Metodologiya obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti Tekst nauchnoy statyi po spetsialnosti «Ekonomika i biznes» <a href=)
5. Румянцева З.П. и др.экономическая безопасность предприятий .Elibrary <https://elibrary.ru> › Автор: ЛА Запорожцева · 2019 ·
6. Экономическая безопасность : учебник для вузов / под общ. ред. Л. П. Гончаренко, Ф. В. Акулинина. — М. : Издательство Юрайт, 2015. — 478 с
7. Дишлова Л.Н.ва Лукьяненко В.А. Экономическая безопасность. - Ростов-н/Д: Феникс, 2007. -С 6.: О. А. Рязанова. —Развитие мониторинга факторов экономической безопасности субъектов малого бизнеса на основе риск-ориентированного подхода|| дисс. — К.: 2018г. С-17.
8. Normurodov X. va boshqalar Korxona iqtisodiy xavfsizligi muammolar va ularning haqida yechimlari <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/45524/28996/49299>.